

Chiziqli algoritm blok-sxemasini tuzish

Hayotda biz chiziqli algoritmlarga tez-tez duch kelamiz. Matematik masalani yechish, uydan maktabgacha bo'lgan yo'l, ish rejasi, kun tartibi – bularning barchasi chiziqli algoritmlarga misol bo'ladi.



1. Chiziqli algoritmlarga yana bir nechta misol keltiring. Ularning har biri nechta harakatdan iborat bo'ldi?



2. Quyidagi buyruqlar to'plami algoritm bo'la oladimi?

**Nima kerak bo'lsa, oling!
Qanday bajarish kerak bo'lsa,
shunday bajaring!
O'zingiz xohlagan narsani oling!**



Biror-bir jarayon uchun algoritm blok-sxemasini tuzishda algoritmni alohida harakatlarga bo'lish kerak. **Algoritmdagi har bir harakat aniq va tushunarli ifodalangan bo'lishi kerak.** Agar algoritm to'g'ri tuzilgan bo'lsa, blok-sxemaning barcha harakatlari bajarilgandan keyin kutilgan natija, albatta, hosil bo'lishi kerak.